

RADDIYA YO'NALISHIDAGI ASARLAR KLASSIFIKATSIYASI**Muhammadmuso Nabijonov**

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik
akademiyasi maqsadli tayanch doktoranti
nabijonovmuhammadmuso0@gmail.com
Tel: +998 90 216 14 96

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17149262>

Annotatsiya. Ushbu maqola islom olamida soxta salafiylik g'oyalari qarshi yozilgan ilmiy-amaliy asarlar klassifikatsiyasini, ularning mavzuiy yo'nalishlari, mualliflarning ilmiy maktablari va tarixiy shaxslar hamda hodisalar bo'yicha yondashuvlarini tahlil qiladi. Maqolada, shuningdek, Qur'on va Sunnatga asoslangan raddiyalar hamda polemik uslubdagi asarlar ko'rib chiqiladi. Klassifikatsiyaning muhimligi, ilmiy an'analarning uzviyligi, mualliflarning ilmiy-huquqiy qiymati va islom ilmiy tafakkurining tarixiy rivojlanishidagi o'rnini ochib beriladi. Turli mualliflarning, jumladan, Abul Fida Ismoil ibn Muhammad at-Tamiymiy, Imom Ahmad ibn Hanbal, Abu Mutiy' an-Nasafiy, Hasan ibn Aliy as-Saqqof, Abu Mansur Abdulqohir ibn Muhammad al-Bag'dodiy, Abu al-Barakot Abdulloh ibn Ahmad bin Mahmud an-Nasafiy va Abu Muin Nasafiyning asarlari tahlil qilinib, ularning mazmuni, tuzilishi va ilmiy qiymati ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar. Soxta salafiylik, raddiya, klassifikatsiya, ilmiy maktab, mavzuiy yo'nalish, tarixiy shaxslar, Qur'on, Sunnat, polemik uslub, kalom, aqida, bid'at, xavorij, rofiziy, mu'tazila.

Islom olamida har bir davr turli ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, g'arb ta'sirlari va yangi ilmiy-ma'rifiy qarashlarning shakllanishi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, islom dini ta'limotlariga nisbatan paydo bo'lgan noto'g'ri talqinlar, xususan, soxta salafiylik g'oyalari ham keng tarqaldi. Bunday sharoitda, ko'plab atoqli sunniy ulamolar o'z asarlarida ushbu noto'g'ri da'volarga qarshi prinsipial pozitsiyani egallab, ularga asosli va ilmiy-adabiy shaklda raddiyalar bildirdilar. Ushbu maqolada biz ushbu raddiya yo'nalishidagi asarlar klassifikatsiyasini ko'rib chiqamiz.

Muallifning ilmiy maktabi va yo'nalishini aniqlash, uning yozgan raddiyalarini chuqurroq tahlil qilish, asoslarini tushunish, ularning ilmiy-huquqiy qiymatini baholash va islom ilmiy tafakkurining tarixiy rivojlanishidagi o'rnini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega. Bu orqali biz soxta salafiylik da'volariga qarshi kurashning turli usullari, metodologiyalari va ilmiy-huquqiy asoslarini yanada yaxshiroq anglab yetamiz. Misol: Abul Fida Ismoil ibn Muhammad at-Tamiymiyning "Al-Minah al-Ilahiyya fi toms al-zolala al-

vahhabiyya” asari. Bu asar to’liq aqida va kalom ilmi doirasida yozilgan bo’lib, zamonaviy salafiyning (vahhobiylarning) aqidaviy da’volarini rad etishga qaratilgan raddiyaviy asardir. Muallifning Muhammad ibn Abdulvahhobning “Kashf ash-Shubuhot” risolasidagi aqidaviy da’volarni inkor etish va ularning botilligini dalillar bilan ko’rsatishdan iborat bo’lgan maqsadi, ushbu asarning ilmiy yo’nalishini aniqlab beradi. Asar uchta bo’lim (matlab) va xotima qismiga bo’lingan. Muallif kitobni Qur’on va Sunnatdan, salaf va xalaf olimlarini so’zlaridan va mantiqiy va usuliy qoidalardan dalillar keltirib yozgan.

Raddiya yo’nalishidagi asarlarning mavzuiy yo’nalishlari mualliflarning qarashlarini, ularning o’sha davrdagi ijtimoiy-diniy muammolarga nisbatan pozitsiyasini va islomiy ilmiy an’ananing rivojlanishini ochib beradi. Asarning mavzusi muallifning qaysi ilmiy sohada ko’proq bilimga ega ekanligini ko’rsatadi. Masalan, agar asarning asosiy mavzusi aqida masalalari bo’yicha bo’lsa, demak muallif kalom ilmi, Allohning sifatleri, tajsim, tashbih, takfir, payg’ambarlik kabi masalalarga chuqur urg’u beradi. Mavzularning o’zi soxta salafiylikning qaysi g’oyalari, qarashlari yoki da’volari aynan o’sha davrda kuchliroq ta’sir o’tkazganini ko’rsatadi. Misol: Abu Mutiy’ an-Nasafiyning “A-Roddu ala ahli bidai’ va al-ahvai az-zolalati” (Bid’at va adashgan havo ahliga raddiya) asari islomdagi adashgan firqalarni tanqidiy tahlil qilishga va ularga raddiyalar berishga bag’ishlangan. Asar, ummatning 73 firqaga bo’linishi haqidagi mashhur hadisni keltirib, adashgan 72 firqaning kelib chiqishini oltita asosiy ildizga borib taqalishini ko’rsatadi. Bu asar bid’at va adashgan firqalar mavzusiga qaratilgan bo’lib, soxta salafiylikning turli shakllariga qarshi yo’naltirilgan.

Tarixiy shaxslar va hodisalar yo’nalishdagi raddiyalar ko’pincha soxta salafiylik ta’limoti, islom tarixidagi buyuk shaxslarga (masalan, sahobalar, avliyolar, mashhur ulamolar) va muhim tarixiy hodisalarga nisbatan nohaq tanqidlar, ayblashlar yoki noto’g’ri talqinlarga qaratilgan bo’ladi. Ushbu yo’nalishdagi raddiyalar ushbu muqaddas shaxslarning fazilatlarini, xizmatlarini, islomga qo’shgan hissalarini isbotlash hamda tarixiy voqealarning asl mohiyatini ochib berishga qaratilgan bo’ladi. Misol: Hasan ibn Aliy as-Saqqofning “As-salafiyya va al- vahhabiyya va juzuruha at-tarixiyya” (Salafiylik va Vahhobiylilik hamda ularning tarixiy ildizlari) kitobi. Bu asar Salafiylik va Vahhobiylilik oqimlariga bag’ishlangan tanqidiy monografiya bo’lib, ularning aqidaviy asoslari, tarixiy rivojlanishi va amaliyotlarini chuqur o’rganadi. Muallif islomiy tafakkur tarixidagi keskin nuqtalarni, ya’ni Islom olamida mazhablar va aqidaviy maktablar shakllangan davrlarni qamrab oladi va tarixiy shaxslar

(masalan Ibn Taymiya, Muhammad ibn Abdulvahhob, Albony) va oqimlar (mujassimalar, vahobiylik)ga nisbatan tahlil olib boradi.

Qur'on va Sunnatga asoslangan raddiyalar, soxta salafiylik da'volariga qarshi kurashning eng asosiy va eng kuchli yo'nalishi hisoblanadi. Bu turdagi raddiyalar har bir musulmon uchun islomning asosiy va mutlaq manbalari hisoblanadi. Bu manbalarga asoslangan raddiyalar, soxta salafiylikning o'z talqinlari va noto'g'ri tushunchalarini Qur'on va Sunnatga zidligini ko'rsatish orqali ularning asossizligini ochib beradi. Misol: Imom Ahmad ibn Hanbal rohmatalloh alayhning "Ar-Roddu alal jahmiyyati vaz zanadiqoti" asari. Bu asarda musannif jahmiya va zindiqlarning qarashlariga raddiya bergan. Asarda musannif jahmiya va zindiqlarning qarashlarini keltirib, ularning qarashlari botil ekaniga inkor qilib bo'lmaydigan dalillarni keltiradi. Kitobda Qur'on oyatlari va sahih hadislarni chuqur tahlil qilish orqali o'z pozitsiyasini mustahkamlaydi.

Polemik uslub: bu bahs-munozaraga asoslangan, ko'pincha raqibning fikrlarini to'g'ridan-to'g'ri rad etishga qaratilgan uslubdir. Muallif raqibning fikrlarini, dalillarini yoki xulosalarini aniq va qat'iy ravishda rad etadi. Bunda ko'pincha raqibning da'volari asoslanmaganligi, Qur'on va Sunnatga zidligi kabi aniq dalillar bilan isbot qilinadi. Misol: Abu Mansur Abdulqohir ibn Muhammad al-Bag'dodiy at-Tamimiyning "Al-Farq bayna al-firaq" (Firqalar orasidagi farq) kitobi. Bu asar islom olamidagi firqalar va mazhablarni o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Muallif har bir firqaning g'oyalarini bayon qilganidan so'ng, ularning dalillarini aqlan va naqlan (Qur'on va hadisga asoslanib) rad etadi. Shuningdek, u o'zini himoya qilayotgan "Ahlusunna val-Jamoa" yo'lini eng to'g'ri yo'l sifatida asoslaydi. Bu uslub bahs-munozara va tanqidiy tahlilga boy.

Tasniflashda faqat musulmonlar ichidagi qaysidir bir firqaga qaratilgan asarlarni keltirish va bundan tashqari asarlarni ichida ma'lum bir firqalarga raddiyalar berilganligi jihatidan ham tasniflash mumkin. Bundan tashqari asar raddiya yo'nalishida emas, lekin asarning ichida bir necha islomda bo'lgan va bo'lmagan firqalarga raddiyalar berilgan bo'lishi, qolaversa fiqhiiy va aqiydaviy masalalarda bo'ladi. Misol: Abu al-Barakot Abdulloh ibn Ahmad bin Mahmud an-Nasafiy al-Hanafiyning "Al-I'timad fi al-I'tiqad" asari. Bu kitob muallifning "Umdat al-Aqo'id" ("E'tiqodlar asosi") nomli asarining sharhidir. Asarning asosiy mazmuni va maqsadlari, Ahli sunna val jamoa e'tiqodining moturidiya mazhabiga asoslangan haqiqiy aqidalarini izchil va dalillarga tayangan holda bayon qilishdir. Kitobda faqat nazariy aqidalar bilan cheklanmay, balki bandalarning amallari, iroda, qazo va qadar, shuningdek, jamiyatga oid masalalar (imomlik, sahobalar maqomi kabi)ni ham aqiydaviy asosda

tushuntiradi. Muallif, o'z davridagi va undan oldingi turli aqidaviy oqimlar (sufistlar, faylasuflar, mo'taziliylar, ash'ariylar va boshqalar) tomonidan ilgari surilgan shubhalarga, noto'g'ri talqinlarga va g'oyaviy hujumlarga qarshi kuchli dalillar bilan raddiya beradi.

Yuqorida keltirilgan klassifikatsiyalar, soxta salafiylik da'volariga qarshi yozilgan raddiya yo'nalishidagi asarlarni tizimli o'rganish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mualliflarning ilmiy maktablari va yo'nalishlari, asarning mavzuiy yo'nalishlari, tarixiy shaxslar va hodisalar bo'yicha yondashuvlar, Qur'on va Sunnatga asoslanish, shuningdek, polemik uslub va raddiyaning turi kabi jihatlarni tahlil qilish orqali ushbu asarlarning ilmiy-huquqiy qiymatini baholash va islom ilmiy tafakkurining tarixiy rivojlanishidagi o'rni hamda o'sha davrning diniy-ma'rifiy manzarasini yaxshiroq anglash mumkin. Bu esa, o'z navbatida, islomning boy merosini himoya qilish, haqiqatni tiklash va ma'naviy qadriyatlarni asrash yo'lidagi muhim ilmiy va ma'rifiy harakatlar ekanligini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Mansur Abdulqohir ibn Muhammad al-Bag'dodiy at-Tamimiy. "Al-Farq bayna al-firaq". Makta ibn Sino. Misr. 1037. 320 b
2. Abul Barakot Abdulloh ibn Ahmad bin Mahmud an-Nasafiy. "Al-I'timad fi al-I'tiqad". Maktaba darul fajr. Bayrut. 2020. 331 b
3. Hasan ibn Aliy as-Saqqofning "As-salafiyya ba al- vahhabiyya va juzuruha at-tarixiyya". Darul imam. Bayrut. 159 b
4. Abul Fida Ismoil ibn Muhammad at-Tamiymiy (muhaqqiq: Abul Makorim al-Mutoyriy al-Malikiy). "Al-Minah al-Ilahiyya fi toms al-zolala al-vahhabiyya". Darul izola. Bayrut. 2016. 313 b
- 5 Makhul ibn Al-Fazl Abu Mutiy' an-Nasafiy. "A-Roddu ala ahli bidai' va al-ahvai ad-dolalati". Muhaqqiq Sayyid Bog'javn. Ummon. Maktabatul g'onim. 2024. 400 b